

MAJBURIY ONA TILI

1. Qaysi javobdagi **yomon** so‘zi **gunoh, ayb** ma’nolarida qo’llangan?
 - A) Bolalikda o’tgan **yomon** kunlari esiga tushib xo’rligi keldi.
 - B) Yarasi juda **yomon**, juda qiynalib yotibdi.
 - C) Hay, Xadichaxon, o’ylab gapiring-a, birovga tuhmat qilish **yomon-a!**
 - D) **Yomon** xabarning qanoti yengil bo’ladi, tez tarqaladi.
2. Qaysi javobda zid ma’noli so‘zlar juftligi berilgan?
 - A) tor – keng
 - B) qalin – yo‘g‘on
 - C) hiyla – xiyla
 - D) xotirjam – bemalol
3. Qaysi javobda ot turkumi doirasida o‘zaro shakldoshlik hosil qila oladigan so‘z berilgan?
 - A) qor
 - B) afzal
 - C) shoh
 - D) ot
4. Qaysi javobda tasviriy ifodaning izohi to‘g‘ri berilgan?
 - A) o‘rmon qiroli – sher
 - B) kumush tola – makkajo‘xori
 - C) dala malikasi – paxta
 - D) mo‘yqalam ustalari – shoirlar
5. Qaysi javobdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z ko‘chma ma’noda qo’llangan?
 - A) buloqning ko‘zi
 - B) qalin taxta
 - C) shabadaning yugurishi
 - D) tog‘ cho‘qqisi
6. Qaysi javobdagi so‘zlar imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan?
 - A) xususiyat, tafsilot
 - B) daromad, sabzovot
 - C) saxovot, zokovat
 - D) halovat, forosat
7. Qaysi qatordagi iboralar ma’nosи to‘g‘ri emas?
 - A) Yerga ursa ko‘kka sapchiydi – juda sho‘x
 - B) Tepa sochi tikka bo‘lmoq – jahli chiqmoq
 - C) Podadan oldin chang chiqarmoq – shoshilmoq
 - D) Og‘ziga tolqon solmoq – ko‘p ovqat yemoq
8. *Jalil qo‘yin cho‘ntagidan gazetaga o‘ralgan pulni olib sanamoqchi edi, yamoqchi urishib berdi.* Ushbu gapda fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar soni nechta?

- A) 2 ta
 - B) 4 ta
 - C) 3 ta
 - D) 5 ta
9. Qaysi javobda ikkinchi bo‘g‘ini unli va jarangli undoshlardan iborat bo‘lgan so‘zlar berilgan?
- A) qog‘oz, qo‘g‘irchoq, qalam
 - B) qo‘sinq, qovun, qamar
 - C) ko‘rsat, qirg‘ich, qiymat
 - D) qasam, qulq, quyon
10. *Eshikka kiring, aka, choy ichib ketasiz.* Ushbu gapda ma’no ko‘chishning qaysi turi mavjud?
- A) metafora
 - B) metonimiya
 - C) sinekdoxa
 - D) ma’no ko‘chish yuz bermagan